

"O'zkimyosanoat" Ajda eksport ko'rsatkichlari o'sish sur'atini saqlab qolmoqda.

// 22.07.2026

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/sarhisob20260722>

2026-yilning birinchi yarim yilligi yakunlari bo'yicha "O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati tomonidan eksport yo'nalishida barqaror natijalarga erishildi. Hisobot davrida jamiyat tizimida jami **329 million dollarlik** kimyoviy mahsulotlar eksport qilindi.



Eksport tarkibida yuqori talabga ega mineral o'g'itlar va kimyoviy mahsulotlar asosiy o'rinni egalladi. Jumladan:

karbamid – **64,4 mln** dollar;

ammiakli selitra – **38,4 mln** dollar;

superfosfat – **8,8 mln** dollar;

past zichlikdagi ammoniy nitrat – **19,1 mln** dollar;

KMS va PAS – **3,8 mln** dollar;

boshqa kimyoviy mahsulotlar – **194,5 mln** dollar.

Ayniqsa, qo'shilgan qiymati yuqori bo'lgan **boshqa kimyoviy mahsulotlar eksporti 194,5 mln dollarni** tashkil etib, umumiy eksport hajmining katta qismini ta'minladi. Shuningdek, superfosfat hamda KMS va PAS mahsulotlari bo'yicha belgilangan prognoz ko'rsatkichlari ortig'i bilan bajarildi.

Erishilgan natijalar "O'zkimyosanoat" AJ tizimida mahsulot turlarini diversifikatsiya qilish, tashqi bozorlarda

raqobatbardoshlikni oshirish hamda eksport geografiyasini kengaytirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samarasini ko'rsatmoqda.